XALQ DEPUTATLARI TOMDI TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2024 - yil 5 - yanvar VI-64-1-5-75-K/24 Tomdi tumani hokimligi

Tomdi tumani bo‘yicha 2024 yil uchun yuridik va jismoniy shaxslarning yer solig‘i stavkalarini hamda mol-mulk solig‘ini hisoblashda qo‘llaniladigan eng kam qiymatni tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 412-, 429- va 437-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6121-sonli Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasining tegishli xatiga asosan Navoiy viloyati bo‘yicha yuridik shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlari va jismoniy shaxslar uchun belgilangan yer soliqlarining 2024-yil uchun soliq stavkalarini hamda yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulklari uchun mol-mulk solig‘ini hisoblashni tartibga solish maqsadida xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 412-, 429- va 437-moddalariga asosan Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar 1-ilovaga hamda 2024 yil Tomdi tumani hududlarni iqtisodiy rivojlantirishiga qarab qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, xalq deputatlari tuman Kengashi, yuqorida 1-2-ilovalar bilan

belgilangan soliq stavkalariga 0,7 dan 3,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlarni belgilash huquqiga ega ekanligi ko‘rsatib o‘tilsin.

2. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (O.Umarov), tuman davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Berdiyev), tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Q.Igilikov) 2024 yildagi byudjet-soliq siyosatidagi o‘zgarishlar, soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritib borilishini ta’minlasin.

3. Xalq deputatlari tuman Kengashiga 2022 yilning 31 dekabriga qadar keyingi soliq davri uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari uchun soliq stavkalarini belgilangan tartibda soliq organlariga kiritsin.

4. Ushbu qaror “Tamdi sharuageri” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining “tomdi.uz” rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Ushbu qaror qabul qilinishi munosabati bilan xalq deputatlari tuman Kengashining 2022 yil 30 dekabrdagi VI-45-204-5-75-K/22-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (O.Umarov) va xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investisiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (L.Bayanasov) zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Sessiyaga raislik qiluvchi **M.K.Bazarbayev**

Xalq deputatlari Tomdi tuman
Kengashining
2024-yil 5-yanvardagi
VI-64-1-5-75-K/24-son qaroriga
1-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar

T/r	Hudud nomi	Soliq stafkasining aniq miqdori	Koeffisiyent (0,7 dan 3 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2023 yil uchun
1	Tomdibuloq OFY	320,0	0,9	297,6
2	Sharq MFY	320,0	0,9	297,6
3	Ayaqquduq OFY	320,0	0,9	297,6
4	Suketti OFY	320,0	0,9	297,6
5	Kirezbuloq OFY	320,0	0,9	297,6
6	Keregetov OFY	320,0	0,9	297,6
7	Shiyeli OFY	320,0	0,9	297,6
8	*(Zarafshon shahar buysunuvidagi)* Muruntau MSG	320,0	0,9	297,6
9	Aqtov OFY	320,0	0,9	297,6

Izox: Tuman Kengashi tomonidan jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i stavkasini ovul fuqarolar yig‘inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko‘paytiruvchi koeffisiyentlarni belgilash huquqiga ega.

Xalq deputatlari Tomdi tuman
Kengashining
2024-yil 5-yanvardagi
VI-64-1-5-75-K/24-son qaroriga
2-ilova

2024 yil Tomdi tumani hududlarni iqtisodiy rivojlantirishiga qarab qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar

T/r	OFY lar nomi	Yuridik shaxslar uchun		
		Soliq stafkasining aniq miqdori	Koeffisiyent (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2023 yil uchun (1 ga uchun)
1	Tomdibuloq OFY	36 000 000	0,8	29 160 000
2	Sharq MFY	36 000 000	0,8	29 160 000
3	Ayaqquduq OFY	36 000 000	0,8	29 160 000
4	Suketti OFY	36 000 000	0,8	29 160 000
5	Kirezbuloq OFY	36 000 000	0,8	29 160 000
6	Keregetov OFY	36 000 000	0,8	29 160 000
7	Shiyeli OFY	36 000 000	0,8	29 160 000
8	*(Zarafshon shahar buysunuvidagi)* Muruntau MSG	36 000 000	0,8	29 160 000
9	Aqtov OFY	36 000 000	0,8	29 160 000

Izox: Tuman Kengashi tomonidan jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i stavkasini ovul fuqarolar yig‘inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko‘paytiruvchi koeffisiyentlarni belgilash huquqiga ega.